

**BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING MANTIQIY VA KREATIV TAFAKKURINI  
RIVOJLANTIRISHDA KEYSALAR ASOSIDA O‘QITISH MODELI**

*pedagogika fanlari doktori, (DSc) Allayarova Solicha*

*magistrant, Yodgorova Sehriyo*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning mantiqiy va kreativ tafakkurini rivojlanirishda keysalar asosida o‘qitish hamda talabalarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida ularning kreativligini rivojlanirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish asoslari keltirilgan.*

**Аннотация.** В данной статье представлены принципы использования инновационных педагогических технологий в развитии логического и творческого мышления будущих педагогов в процессе обучения на основе кейсов и в процессе обучения учащихся и развития их творческих способностей.

**Annotation.** This article presents the principles of using innovative pedagogical technologies in the development of logical and creative thinking of future teachers in the learning process based on cases and in the process of teaching students and developing their creative abilities.

**Kalit so‘zlar:** Case-study metodi, kreativ tafakkur, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, bo‘lajak pedagog.

**Ключевые слова:** метод «кейс-стади», творческое мышление, критическое мышление, творческое мышление, будущий педагог.

**Key words:** Case-study method, creative thinking, critical thinking, creative thinking, future pedagogue.

**Kirish.** Jahondagi globallashuv va ta’limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorlarligini rivojlanirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta’lim muassasasini jahoning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatishi, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, ta’lim oluvchilar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilmalari va kreativlik qobilyatlarini rivojlanirish masalalari “Taraqiyot strategiyasi”ning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq oliy ta’lim darajasini sifat jihatidan oshirish va sohani tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgandi[1].

Bo‘lajak pedagoglarning mantiqiy va kreativ tafakkurini rivojlanirishda keysalar asosida oliy ta’lim muassasalari talabalarining kreativ tafakkurini shakllantirish

jarayonida quyidagi holatlar so‘z yuritilayotgan jarayonda samaradorlikka erishishni kafolatlaydi:

-oliy ta’lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish;

-oliy ta’lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

-oliy ta’lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash;

-talabalarning kreativ tafakkurini shakllantirishga yordam beruvchi shakl, metod va vositalar tizimini asoslash;

-talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy-pedagogik bilimlarning amaliyotga tadbiq etishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

Bo'lajak pedagogning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning yetakchi vositalaridan biri bu-pedagog va talabaning birgalikdagi ijodidir. Biroq, universitetda ko`p yillar davomida rivojlangan ta’lim tizimi talabaning o’quv faoliyatida ijodkorlikka yo’naltirilishiga to’liq yordam bera olmaydi, pedagogning faolligini talabaning tashabbusi va mustaqilligi foydasi hisobiga rivojlanmaydi. Bo'lajak pedagogning mantiqiy tafakkurini birgalikda yaratish asosida rivojlantirish ushbu qarama-qarshilikni bartaraf etishga qaratilgan[2].

Bo'lajak pedagogning mantiqiy tafakkurining rivojlanish jarayonini birgalikda yaratish asosida o’rganish muammoni hal qilishning didaktik modelini tahlil qilish va qurish kalitini beradi. Bo'lajak pedagogning mantiqiy tafakkurining rivojlanishini birgalikda ijod qilish asosida o’rganishning dolzarbliji, shuningdek, bo'lajak o’qituvchining birgalikda ijod qilishga yetaricha tayyor emasligi va uning pedagogika fanida yomon rivojlanishi muammosi bilan belgilanadi.

Shtutgart texnologiya universiteti professori J.M.Mitinaning fikricha, “Bo'lajak o’qituvchining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish muhim pedagogik muammodir, chunki u empirik bilimlarni tartibga solish, turli tushunchalarni tizimlashtirish va tasniflash, ularga aniq ta’rif berish, pedagog va talabalar o’rtasida o’zaro tushunishni ta’minlash imkonini beradi”. Bilimlarni rivojlantirish, uni ravshanlikdan ajratish, bo'lajak pedagogning mantiqiy fikrlash rolini kuchaytiradi. Uning rivojlanish darajasi bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligini tavsiflaydi[3].

Zamonaviy universitetda bo'lajak pedagogning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili jamiyatning rivojlangan mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega pedagogga bo'lgan ehtiyoji va uni universitetda rivojlantirish strategiyasining yo'qligi, hamkorlik qilishning potentsial imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni borligini ko`rsatadi.

Biroq, pedagoglarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish kontekstida pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyati masalasi hali ham yetarli darajada o’rganilmagan. Bu borada talabalarning aqliy faoliyatini faollashtirish, ilmiy faolligini

rag‘batlantirish, fikrlashni tashkil etish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini egallahsga qaratilgan texnologik texnika va mexanizmlar majmuasini o‘z ichiga olgan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining imkoniyatlari alohida qiziqish uyg‘otadi[4].

Ijodiy fikrlash o‘z mahsulotining yangiligi, uni olish jarayonining o‘ziga xosligi va talabaning rivojlanishiga ta’siri bilan tavsiflanadi. Bu nafaqat olingen bilimlardan keng foydalanishni, balki o‘tmish tajribasidan ijodiy foydalanishni, ob’ektlar va hodisalarни odatiy idrok etishdan chetga chiqishni, to’plangan bilimlar va muammoli vaziyat talablari o’rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishni ham o‘z ichiga oladi.


O’quv jarayonida kreativ fikrlashning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardir:

- g’oyalarning paydo bo’lishi;
- ularning o‘ziga xosligi;
- aktiv aloqalarning paydo bo’lishining tezligi va samaradorligi;
- sub’ektiv tajribadan foydalanish;
- mavjud materiallardan noan'anaviy foydalanish.

Qadimgi Yunon falsafasida kreativlik ijod manbai emas, balki ijodning o‘zi, ya’ni ijodiy fenomendir. Arastu (er. avv. 384-322 y.) o‘z qarashlarida “kreativlik” va “kreativ tafakkur” tushunchalarini ishlatib, bu ikki terminni bir-biridan ajratishga ham harakat qilgan. Uning fikriga ko‘ra, “kreativlik”- ijodiy imkoniyatdan ijodiy voqelikka o’tish jarayoni bo’lsa, “kreativ tafakkur” mazkur jarayonning asosiy natijasidir. Biroq ajablanarli joyi shundaki, mutafakkirning keyingi mulohaza va qarashlarida ushbu xulosa rivojlanmay qolgan, buning ustiga har ikkala tushuncha aynan bir-biriga o’xhash, to’ldiruvchi mazmunda ishlatilgan. Arastu “Ijad o’z-o’zini anglashdagi determinallashgan faoliyat bo’lib, u bilimning yangidan-yangi sifat ko‘rsatkichlarini yuzaga keltiradi”, deb tushuntirgan. Kreativlik va aql (intellekt)ni bir-biri bilan uzviy bog`liqlik jihatlari bordir[5].

“Case-study” metodi nazariy bilimlarni amaliy masalalarini yechishda qo’llash imkonini beruvchi vositadir. Ushbu usul talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, muqobil nuqtai nazarni tinglash, o‘z fikrini asosli tarzda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usul yordamida talabalar tahliliy va baholash ko‘nikmalarini namoyish etish va yaxshilash imkoniyatiga ega bo’lishadi. Bundan tashqari, o‘qitishning interfaol usuli bo‘lgan holda case-study metodi nazariy tushunchalarni o‘zlashtirishni ta’minlab, talabalarda ijobiy munosabatni yuzaga chiqaradi. Shu bilan birga, “case-study” usuli ham pedagogning fikrlash tarzi, o‘ziga xos paradigmasi (*paradigma* - grekcha namuna, andoza, ilmiy yutuqlar majmui) vazifasini bajaradi, bu pedagogga boshqacha fikrlash va harakat qilish, ijodiy salohiyatini yangilash imkonini beradi.

Bo‘lajak pedagoglarning mantiqiy va kreativ tafakkurini rivojlantirishda keyslar asosida o‘qitish quyidagi 5 bosqichda amalga oshirish tavsiya etiladi:



**Xulosa.** Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, bo`lajak pedagoglarni kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g`oyalar, konsepsiylar hamda ilg`or pedagogik tajribalar asosida o`qitish jarayonini tashkil etish hamda kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli faoliyatli yondashuvni shakllantirish lozimdir. Bo`lajak pedagoglarning mantiqiy va kreativ tafakkurini rivojlantirish natijasida haqiqiy kasbiy faoliyat muammolarini tushunish, ularni aniqlash usullarini o`zlashtirish, muammolarni hal qilishga imkon beradigan manbalarni izlash va shu bilan birga ta'lim tizimida tezkor fikrlaydigan zamonaviy pedagoglarning yuksalishiga xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. S. N.Allayarova G.A.Abdullaeva. Tarbiya jarayoni sifatini kvalimetrik monitoring qilish: muammo va yechimlar. Современное образование. Toshkent-2019
2. Yodgorova Sehriyo. Keyslar asosida mantiqiy va kreativ fikr yuritish imkoniyatlarini rivojlantirishning uslubiy asoslari. Ilm-fan va innovatsiya.Ilmiy-amaliy konferensiya. <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/17435>.
3. Maxamatova, F. (2020). Pedagogika fanini o`qitish jarayonida muommoli o`qitish texnologiyalaridan foydalanish. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI.
4. Exsonova F.T. O`quvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish yo'llari Uzluksiz ta'l im. – Toshkent, 2018

5. G'afforov. Ya.X. Maktab islohati va o'qitish metodlarini takomillashtirish. Science and education. Sgientific Journal. 2020, 482.
6. Лямкина.О.А. Педагогическая мастерская как форма организатии профессионально-творческой подготовки будущего учителя
7. Usmonboyeva M., To'rayev A. Kreativ pedagogika asoslari. o'quv –uslubiy majmua. - Т.:TDPU 2016
8. Ibragimova G. (2015). Pedagogik innovatsiyalar yordamida talabalarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish. Zamonaviy ta'lim, 1(3), 50-54.